

“Birinci paket uchun bonus” aksiyasi

2024 yil 13 may tahrir

«Birinci paket uchun bonus» aksiyasi (keyingi o‘rinlarda Aksiya) Humans sodiqlik dasturining ajralmas qismi bo‘lib, «Humans» MChJning cheklanmagan doiradagi shaxslarga taklifidir.

1. Aksiya haqida ma‘lumot

1.1. Aksiya matnida katta harf bilan yozilgan so‘zlar atamalar hisoblanadi. Shartlarning ma‘nosi, agar ushbu Aksiyada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, www.humans.uz veb-saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish shartlari va Humans sodiqlik dasturi qoidalarida keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilariga qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar - Aksiyada Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish shartlarini qabul qilib, Humans aloqa xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzgan va ushbu Aksiyaning 2-bo‘limida sanab o‘tilgan amallarni bajargan ishtirokchilar qatnashishlari mumkin.

1.3. To‘lanmalar summasi - bu Ishtirokchi tomonidan ulangan va to‘langan Tarif paketining narxi (to‘plamga ulangan Cheksiz ilova opsiyalari, Cheksiz SMS opsiyasi xarajatlari hisobga olingan holda) va boshqa barcha Xizmatlar va Tariflar bundan mustasno. Ushbu Aksiya doirasidagi To‘lanmalar summasini hisoblash uchun faqat Ishtirokchining shaxsiy hisob varag‘idan yechib olingan mablag‘lar hisobga olinadi.

Tarif paketi va Osiyalari narxini Keshbek orqali to‘lash, Aksiya bo‘yicha taqdim etilgan To‘lanmalar summasi va Bonusni hisoblashda hisobga olinmaydi. Ya‘ni, Ishtirokchining Keshbek hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan mablag‘ bilan Tarif to‘plami va Osiyalari narxi to‘liq to‘langanda, Bonus 0 UZSni tashkil qiladi.

1.4. Yangi tahrirdagi aksiyaning o‘tkazilish davri: 13.05.2024-yildan boshlab to bekor qilinguniga qadar muddatsiz.

2. Aksiya tavsifi

2.1. Aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Shartnoma tuzilgan kuni To‘lovlar qiymatining 10% miqdorida Bonus beriladi. Agar Tarif paketlari Shartnoma tuzilgan birinchi kunida to‘lanmagan bo‘lsa, Bonus berilmaydi.

2.2. 2.1-bandda keltirilgan avtomatik uzaytirish uchun mablag' yetarli bo'lmasa, Tarif paketi, jumladan ulangan Opsiylari bo'lgan Ishtirokchilarga bonus berilmaydi.

2.3. «Raqamni almashtirish», «Maxsus toifadagi raqamni tanlash» yoki «Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish» xizmatlarini, jumladan xizmat uchun davriy to'lovlarni amalga oshirgan Ishtirokchilarga ularning Shaxsiy hisob raqamidan to'langan xizmatning To'lanmalar narxidan 5% (besh foiz) miqdordagi Bonus beriladi.

2.4. Agar biror bir asosdga ko'ra Ishtirokchi Tarif paketini yoki har qanday opsiya/xizmatni uning amal qilish muddatigacha (Tarif paketi bo'yicha/opsiya Hisob-kitob davri, xizmatning amal qilish muddati tugaguniga qadar) o'chirib qo'ysa, taqdim etilgan Bonus bekor qilinadi, Ishtirokchining Keshbek hisobi tegishli kamayadi, bu o'z navbatida, jumladan, Ishtirokchining Keshbek hisobida manfiy qoldiq hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

2.5. Bonus Ishtirokchi hisob raqamidan To'lanmalar summasi yechib olingan sanadan keyingi kuni sutkasiga bir marta beriladi.